IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23. Issue 02. Sentabr, 2026

QURBON BEREGINNING 1920–1930-YILLARDAGI XORAZM VOHASI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTINI YORITISHDAGI MANBASHUNOSLIK AHAMIYATI

Shakirova Mardona Maqsudbek qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchi-stajyori
Email:mardonamaqsudovna@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23074579

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asrning 20–30-yillarida Xorazm vohasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganishda Qurbon Bereginning ilmiy-publitsistik va siyosiy faoliyati natijasida yaratilgan asarlarning manbashunoslik ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, uning "Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari" asari asosida 1928–1930-yillarda Xorazmda amalga oshirilgan agrar siyosat, yer-suv munosabatlarining o'zgarishi, mulkdor xo'jaliklarning tugatilishi va qishloq aholisining ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlar yoritiladi. Shuningdek, Qurbon Bereginning faoliyati va uning asarlaridan tarixiy manba sifatida foydalanishning imkoniyatlari hamda ayrim metodologik jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Qurbon Beregin, Qurbon Ollaberganov, agrar siyosat, yer-suv islohoti, mehnatsiz xo'jaliklar, kollektivlashtirish, tarixiy manba, manbashunoslik, Xorazm okrugi.

XX asrning 20–30-yillari Xorazm vohasi tarixida murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tugatilgach, vohada yangi siyosiy-boshqaruv tizimi shakllantirildi. 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab esa sovet hokimiyatining iqtisodiy va ijtimoiy siyosati tobora kuchayib bordi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, yer-suv munosabatlari, mulkdor xo'jaliklar va qishloq aholisi ustidan davlat nazoratining kuchayishi vohaning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur jarayonlarni o'rganishda rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, davriy matbuot, xotiralar bilan bir qatorda o'sha davrda yaratilgan siyosiy-publitsistik asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Ana shunday manbalardan biri Qurbon Bereginning 1930-yilda nashr etilgan "Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari" asaridir.[1] Qurbon Bereginning asl ismi Qurbon Ollaberganov bo'lib, u 1904-yilda Xiva shahrida tug'ilgan. U 1920-yillarda yoshlar tashkilotlarida, matbuot va siyosiy-ma'rifiy sohalarda faoliyat olib borgan. 1927-yilda "Inqilob quyoshi" gazetasiga bosh muharrir etib tayinlangan.[2] Uning keyingi faoliyati Xorazm hamda O'zbekistonning siyosiy, ma'rifiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Qurbon Beregin faoliyatini o'rganishda uning nafaqat davlat va jamoat arbobi, balki jurnalist, muharrir va muallif sifatidagi faoliyatiga ham e'tibor qaratish lozim. U o'z faoliyati davomida Xorazmda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni matbuot orqali yoritgan. Manbalarda qayd etilishicha, Qurbon Beregin 1927-yil fevralidan "Inqilob quyoshi" gazetasiga bosh muharrirlik qilgan.[3] Bu davr Xorazmda sovet siyosiy tizimining mustahkamlanishi, qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish va aholining ijtimoiy hayotini yangi siyosiy talablar asosida o'zgartirish jarayonlari kuchaygan davr edi. Qurbon Bereginning jurnalistik faoliyati uning voqelikni bevosita kuzatishi va siyosiy jarayonlarning ichida bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli uning maqolalari va kitoblari XX

asrning 20–30-yillaridagi Xorazm hayotini o‘rganishda qo‘shimcha tarixiy manba vazifasini bajaradi. Biroq bunday manbalarni tadqiq qilishda muallifning davr siyosiy tizimidagi mavqei va o‘sha davr rasmiy siyosiy qarashlari ham hisobga olinishi kerak. Chunki asar sovet siyosiy tizimi hukmron bo‘lgan sharoitda yaratilgan. Shu jihatdan Qurbon Beregin asarlaridagi ma’lumotlarni boshqa arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar va mustaqil tadqiqotlar bilan qiyosiy o‘rganish ilmiy xulosalarning asoslanganligini oshiradi. Qurbon Bereginning eng muhim asarlaridan biri “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” bo‘lib, u 1930-yilda Samarqand–Toshkent shaharlarida nashr etilgan.[4] Asar Xorazm okrugida 1928-yildan boshlab amalga oshirilgan agrar-siyosiy tadbirlar haqida muhim statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Unda xo‘jaliklarning ijtimoiy guruhlarga ajratilishi, tugatilgan xo‘jaliklar soni, tortib olingan yerlar va boshqa mol-mulklar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muallifning ma’lumotlariga ko‘ra, 1928-yil davomida Xorazm okrugi bo‘yicha sobiq xon amaldorlari va to‘ralarga mansub 200 ta, ruhoniy ulamolarga tegishli 52 ta, savdogarlarga tegishli 141 ta hamda sudxo‘rlarga tegishli 13 ta xo‘jalik tugatilgan. Jami tugatilgan mulkdor xo‘jaliklar soni 532 tani tashkil qilgan.[5] Mazkur ma’lumotlar Xorazm qishloqlarida olib borilgan agrar siyosatning ko‘lamini tasavvur qilish imkonini beradi. Eng muhimi, asarda faqat xo‘jaliklar soni emas, balki ularning yer va ishlab chiqarish vositalari ham qayd etilgan. Qurbon Beregin keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu xo‘jaliklardan jami 899 273 tanob yer tortib olingan. Shuningdek, 220 ot, 80 tuya, 229 ho‘kiz, jami 605 bosh ish hayvoni, 202 arava, 404 chig‘ir, 2 ta mashina dvigateli, 1 ta nasos, 36 ta moy juvozi, 13 ta guruch juvozi, 80 ta tegirmon va 246 ta turar joy musodara qilingan.[6] Ushbu raqamlar asarning manbashunoslik qiymatini yanada oshiradi. Chunki tadqiqotchi mazkur ma’lumotlardan foydalanib, o‘sha davrda yer va ishlab chiqarish vositalarining qay tarzda qayta taqsimlanganini o‘rganishi mumkin. Yer-suv munosabatlari va Qurbon Beregin faoliyati haqida gap ketganda XX asrning 20-yillari oxirida Xorazm qishloq xo‘jaligida yer-suv munosabatlarini qayta tashkil etish sovet agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Qurbon Beregin ana shu jarayonlarning bevosita ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, u 1929-yillar atrofida Gurlan tumanida yer-suv islohotini amalga oshiruvchi komissiya raisi sifatida faoliyat olib borgan.[7] Shu sababli uning asaridagi ma’lumotlar faqat ikkilamchi kuzatuv emas, balki jarayonlarning bevosita ishtirokchisi tomonidan berilgan ma’lumot sifatida ham ahamiyatlidir. Biroq bu holat manbashunoslik nuqtayi nazaridan ikki tomonlama yondashuvni talab qiladi. Bir tomondan, muallif voqealarning ichida bo‘lganligi sababli jarayonning ayrim tafsilotlarini yaxshi bilgan. Ikkinchi tomondan esa u davlat siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etgan amaldor va siyosiy faol bo‘lgan. Shuning uchun uning xulosalari davrning rasmiy siyosiy qarashlari ta’sirida shakllangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli Qurbon Beregin asarlarini tarixiy manba sifatida tahlil qilganda, muallifning tarjimai holi, lavozimi, siyosiy faoliyati va asar yaratilgan tarixiy sharoitni birgalikda hisobga olish lozim. Qurbon Beregin asarining muhim jihatlaridan biri unda Xorazm qishloq jamiyatining ijtimoiy tarkibiga oid ma’lumotlarning mavjudligidir. Muallif o‘z asarida xo‘jaliklarni sobiq xon amaldorlari, ruhoniylar, savdogarlar, sudxo‘rlar kabi guruhlarga ajratib ko‘rsatadi.[8] Bu tasnifning o‘zi ham sovet davrida qishloq aholisiga nisbatan qo‘llanilgan siyosiy-ijtimoiy kategoriyalarni o‘rganish uchun muhimdir. Bunda tadqiqotchi bir muhim jihatga e’tibor qaratishi kerak: “mehnatsiz xo‘jalik”, “boy”, “sudxo‘r”, “savdogar” kabi atamalar o‘sha davr siyosiy-huquqiy terminologiyasida muayyan mazmunga ega bo‘lgan. Shuning uchun ularni hozirgi davr iqtisodiy yoki ijtimoiy kategoriyalari

bilan aynan tenglashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Qurbon Bereginning ma’lumotlari orqali sovet hokimiyatining Xorazmdagi qishloq aholisini ijtimoiy guruhlarga ajratish siyosatini ham kuzatish mumkin. Bu esa mazkur asarning nafaqat agrar tarix, balki ijtimoiy tarix uchun ham muhim manba ekanligini ko‘rsatadi. Musodara qilingan mulk haqidagi ma’lumotlarning manbashunoslik qiymati haqida asarda yer bilan bir qatorda ishlab chiqarish vositalari va xo‘jalik inventarlarining ham sanab o‘tilishi alohida e’tiborga loyiq. Masalan, ot, tuya va ho‘kiz kabi ish hayvonlari, arava, chig‘ir, tegirmon, moy va guruch juvozlari, nasos va boshqa ishlab chiqarish vositalarining qayd etilishi Xorazm qishloq xo‘jaligining moddiy-texnik holatini o‘rganishga imkon beradi.[9] Ayniqsa, chig‘irlar, tegirmonlar, juvozlar va ish hayvonlarining qayd etilishi vohaning sug‘orma dehqonchilik va an’anaviy xo‘jalik tizimida qanday vositalardan foydalanilganini aniqlash uchun muhim. Bu ma’lumotlardan foydalanib, tadqiqotchi XX asr boshlaridagi Xorazm qishloq xo‘jaligining an’anaviy ishlab chiqarish tizimi bilan 1920–1930-yillarda joriy etilayotgan yangi xo‘jalik shakllari o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishi mumkin. Qurbon Bereginning asarlari Xorazm tarixining bir nechta yo‘nalishlarini tadqiq qilish imkonini beradi.

Birinchidan, ular agrar tarix uchun muhimdir. Yerlarning tortib olinishi, xo‘jaliklarning tugatilishi, ishlab chiqarish vositalarining musodara qilinishi haqidagi ma’lumotlar qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarni o‘rganishga yordam beradi. Ikkinchidan, ular ijtimoiy tarix uchun ahamiyatlidir. Xorazm qishloqlaridagi turli ijtimoiy guruhlar, ularning siyosiy jihatdan tasniflanishi va davlat siyosatiga munosabati haqida ma’lumot olish mumkin.

Uchinchidan, Qurbon Bereginning publitsistik merosi siyosiy tarix uchun muhimdir. Uning maqolalari orqali sovet hokimiyatining o‘sha davrdagi siyosiy maqsadlari va ularni mahalliy sharoitda amalga oshirish usullarini kuzatish mumkin. To‘rtinchidan, uning asarlari manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim. Chunki ular voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lgan muallif tomonidan yaratilgan. Shu bilan birga, mazkur manbadan foydalanishda tanqidiy yondashuv zarur. Asar 1930-yilda, sovet agrar siyosati faol amalga oshirilayotgan sharoitda yozilgan. Shu sababli undagi terminlar va voqealarga berilgan siyosiy baholarni davr kontekstida tushunish kerak. Qurbon Beregin asarining ilmiy ahamiyatini to‘liq ochib berish uchun uni boshqa turdagi tarixiy manbalar bilan qiyoslash lozim. Jumladan, O‘zbekiston va Xorazm hududidagi davlat arxivlarida saqlanayotgan yer komissiyalari hujjatlari, mahalliy hokimiyat qarorlari, statistik ma’lumotlar va sud-tergov hujjatlari bilan solishtirish mumkin. Bundan tashqari, 1920–1930-yillarda nashr etilgan “Inqilob quyoshi”, “Qizil Xorazm”, “Yoshlar ovozi”, “Ishchi tovushi” kabi davriy nashrlar ham muhim qo‘shimcha manba bo‘la oladi. Qurbon Beregin ushbu nashrlarning ayrimlarida maqolalari bilan qatnashgani qayd etilgan.[10] Bunday qiyosiy yondashuv orqali rasmiy siyosiy manbalarda aks etgan ma’lumotlar bilan voqealarning boshqa ishtirokchilari yoki zamondoshlari bergan ma’lumotlarni solishtirish mumkin.

Xulosa

XX asrning 20–30-yillaridagi Xorazm vohasi tarixini o‘rganishda Qurbon Bereginning ilmiy-publitsistik merosi muhim tarixiy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, uning 1930-yilda nashr etilgan “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” asari Xorazmda amalga oshirilgan agrar siyosat, yer-suv munosabatlarining o‘zgarishi, mulkdor

xo‘jaliklarning tugatilishi va xo‘jalik mulkining musodara qilinishi haqida muhim ma’lumotlar beradi. Asarda 1928-yilda Xorazm okrugi bo‘yicha 532 ta mulkdor xo‘jalik tugatilgani va 899 273 tanob yer tortib olingani haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.[11] Shuningdek, ish hayvonlari, qishloq xo‘jaligi qurollari, tegirmon, juvoz, chig‘ir va boshqa xo‘jalik vositalarining miqdoriy ko‘rsatkichlari ham berilgan. Qurbon Bereginning mazkur jarayonlarda bevosita ishtirok etgani, xususan Gurlan tumanida yer-suv islohoti bilan bog‘liq faoliyat olib borgani uning asarlarini voqea ishtirokchisi yaratgan manba sifatida o‘rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur manbani mutlaq va xolis ma’lumotlar yig‘indisi sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Asar sovet siyosiy tizimi sharoitida yaratilgani sababli undagi siyosiy terminologiya, ijtimoiy guruhlarga berilgan baholar va agrar siyosat talqinini boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish zarur. Umuman olganda, Qurbon Bereginning asarlari Xorazm vohasining XX asr 20–30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy, agrar va iqtisodiy tarixini o‘rganishda muhim manbashunoslik imkoniyatlariga ega. Ularni arxiv hujjatlari, statistik materiallar va davriy matbuot bilan kompleks ravishda o‘rganish Xorazm vohasida yuz bergan murakkab jarayonlarning tarixiy manzarasini yanada aniqroq tiklash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beregin Q. Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari. – Samarqand–Toshkent: O‘zdavnashr, 1930. – 44–45-betlar.
2. Bekmuhammad U. Qatag‘on davridagi jasorat. – Xurshid Davron kutubxonasi elektron resursi.
3. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 2020. – №6(2). – 113-bet va keyingi sahifalar.
4. Allanazarov S. Xorazm qishloq va shahar aholisining ijtimoiy turmush darajasi va muammolari (1925–1941-yillar). // Tamaddun nuri jurnali.
5. Karimov N. Qurbon Beregin qismati. – Toshkent, 2006.
6. Qurbon Bereginning 1920–1930-yillardagi publitsistik va siyosiy faoliyatiga oid materiallar.